

## AQQLI TEXNOLOGIYALARNI BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI TIL BILISHINI RIVOJLANTIRISHIDA QO‘LLASH METODI SIFATIDAGI MOHIYATI

*Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna,  
Samarqand davlat chet tillar instituti, “Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi”  
kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalarining tobora ortib borayotgan roli, o‘qitishning yanada samarali usullarini qo‘llash va hamma uchun ta’lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish, onlayn darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish, o‘qituvchilarni mustaqil ravishda ko‘proq ish olib borish va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada oshirish ishlari, o‘qituvchilarni va o‘quvchilarni aqlii texnologiyalar yordami bilan bilimlarni egallashini va o‘qitlishini, bilimlarni rivojlanishini, o‘qitishning yanada samarali usullarini o‘z ichiga olgan texnologiyalar haqida so‘z yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar: qobiliyatini rivojlanish, ta’lim sifati, insoniyat tarixi, grammatik qoidalar, AKT texnologiyalari, rivojlanayotgan mamlakatlar, raqamli texnologiyalar, ko‘nikmasini rivojlanish, axborot-kommunikatsiya, Aqlii ta’lim texnologiyalari.*

## СУТЬ ПРИМЕНЕНИЯ УМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК МЕТОДА РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*Fайзуллаева Дилноза Убайдуллоевна,  
Независимый научный сотрудник кафедры «Лексикология и стилистики  
английского языка» Самаркандского государственного института иностранных  
языков*

*Аннотация: В этой статье постоянно возрастающая роль современных образовательных технологий, использование более эффективных методов обучения и значительное расширение образовательных возможностей для всех, использование цифровых технологий на онлайн-занятиях, независимость учителей и работа по дальнейшему совершенствованию. Обсуждаются качество образования за счет конкуренции, приобретение знаний и образования преподавателями и учащимися с помощью умных технологий, развитие знаний и более эффективные методы обучения.*

*Ключевые слова: развитие способностей, качество образования, история человечества, грамматические правила, технологии ИКТ, развивающиеся страны, цифровые технологии, развитие навыков, информация и коммуникация, умные образовательные технологии.*

## THE ESSENCE OF APPLYING SMART TECHNOLOGIES AS A METHOD FOR DEVELOPING FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

*Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna,  
Independent researcher of Department of “Lexicology and Stylistics of English Language” of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

*Abstract: In this article, the ever-increasing role of modern educational technologies, the use of more effective teaching methods and the significant expansion of educational opportunities for all, the use of digital technologies in online classes, the independence of teachers and the work of further improving the quality of education due to competition,*

*the acquisition of knowledge and education by teachers and students with the help of smart technologies, the development of knowledge, and more effective methods of teaching are discussed.*

*Key words: ability development, quality of education, human history, grammatical rules, ICT technologies, developing countries, digital technologies, skill development, information and communication, Smart educational technologies.*

Kirish. Ta'lim tizimi - zamonaviy ta'lim texnologiyalarining tobora ortib borayotgan roli bilan tavsiflanadi. O'quvchilar tomonidan innovatsion ta'lim texnologiyalar yordami bilan bilimlarni egallash an'anaviy texnikaga qaraganda ancha tezroq. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, o'zlashtirish va tarqatish xususiyatini o'zgartiradi, o'rganish obyektining mazmunini chuqurlashtirish, kengaytirish, tezda yangilash, o'qitishning yanada samarali usullarini qo'llash va hamma uchun ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar bilan ta'lim olganda, o'quvchilar uchun o'qitish usuli osonlashmoqda. Bunday holda, vositali ta'lim tizimining rolini multimedia, kodeskoplar, kompyuterlar, noutbuklar, Internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, aqlii taxtalar, proyektorlar bajaradi. Bunday vositalarni o'qituvchilarga repetitorlik bilan ta'minlash ta'lim sifatini yaxshilashni ta'minlaydi. Hammamizga ma'lumki, onlayn darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, televizor orqali olib boriladigan onlayn darslar raqamli ta'limning bir shakli deb taxmin qilishimiz mumkin. Demak, raqamli ta'limda: xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega:

internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;  
ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;  
vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;  
“raqamli dunyo”da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lish kabilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qituvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlash qobiliyatini rivojlantirish yoki Internet orqali turli xil ochiq kurslarni tashkil etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu o'qituvchilarga mustaqil ravishda ko'proq ish olib borish va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa yangiliklarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'limgan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarimiz ingliz tilidagi mashg'ulotlarda ingliz tilidagi o'quv axborotni Aqlii texnologiyalar asosida o'zlashtirishga yordam berishi alohida dolzarblik kasb etadi. Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish metodikasi va sohaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan quyidagi mahalliy olimlar ishi o'rganildi: S.K.Boymatova [1], D.D.Djalilov[2], J.J.Jalolov[3], R.A.Zaripova [4] va boshqalar.

Axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish va Aqlii

texnologiyalardan orqali ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha: Sh.Abdullayeva, Sh.S.Alimov [5], R.H.Ayupov [6], N.N.Azizxo‘jayeva [7], G.R.Baltabaeva, M.A.Innazarova, G.T.Makhkamova, A.I.Ziyayev, R.N.Radjapova, G.S.Sobirova [8] mahalliy olimlarimiz izlanishlari o‘rganildi. Didaktik va uslubiy masalalar N.N.Azizxo‘jayeva, L.T.Axmedova, M.A.Innazarova, X.I.Ibragimov, J.J.Djalolov, O.Roziqov [9] ishlarida o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan-yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan ham foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy to‘plangan smart texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlar sermehnatlik darajasini kamaytirgan holda tez natijaga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham smart texnologiyalarini ta’lim tizimining barcha sohalarida samarali qo‘llash mimkin. Ma’lum bir obyektiv sabablarga ko‘ra, smart texnologiyalardan foydalanish jarayoni har bir mamlakatda turlicha yo‘l va turli sur’atda olib borilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsion ishlanmalarni joriy qilishdan tezroq sodir bo‘ldi. Atigi yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb yarmini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Sog‘liqni saqlash sohasida sun’iy intellektga asoslangan ilg‘or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarga tashxis qo‘yish va umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qiladigan texnologiyalar ishlb chiqilgan. Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limni ta’minalash dasturlari ishlab chiqilib an’anaviy darslarga ishtirot eta olmagan talabalarga imkoniyat yaratdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish davlat xizmatlari yanada aholiga xizmat qilish uchun qulay bo‘ldi, ularni taqdim etuvchi institutlar mas’uliyatini oshirdi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik holatlarga duch kela boshladidi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat strategiyalari hamda dasturlarini ishlab chiqishga hissa qo‘shdi. Shu yo‘l orqali boshqarish ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishiga olib keldi. Ushbu raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonida chet tilini o‘qitishda qo‘llanishi o‘quvchilarni til bilish ko‘nikmasini rivojlanishiga katta samara berishi e’tiborga molikdir.

Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta’lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog‘liq ekanligi hech kimga sir eman. Shu bois ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifatini oshirish, innovatsion hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini mustahkamlash va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llay olishga o‘rgatish, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirotchilariga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat.

Respublikamiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida amaliy ishlar olib borilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, “Kompyuterlashtirishni yanada amalga oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida olib borilmoqda. Yuqorida keltirilgan Prezidentimiz Farmonida “... real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy

kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish” belgilab qo‘yilgan. Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadiga yo‘naltirilgan

Xulosa va takliflar. Respublikamiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalariga axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida amaliy ishlar olib borilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, “Kompyuterlashtirishni yanada amalga oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida olib borilmoqda. Yuqorida keltirilgan Prezidentimiz Farmonida “...real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish” belgilab qo‘yilgan. Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadiga yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Бойматова С.К. Развитие коммуникативной компетенции в учебно-профессиональной сфере общения студентов медиков при изучение терминов: - Т.: 1993. - 48с.

ДжалаловД. Д. Проблемы содержания о обучения иностранным языку. — Т.: Фан, 1987. — 110 с.

Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996. -368 b.

Zaripova R. A. Chet tillar o ‘qitish metodikasidan qo‘llanma, — Т.: O‘qituvchi, 1986. — 184 b.

Alimov Sh. S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching. – Т., 2017. – с-232

Аюпов Р.Х. Информационные технологии в образовании. Учебник. Ташкент: 2021 г., -585 стр.

N.N.Azizzojayev, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qollanma.-Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti 2006, 160 b.

Boltaboeva G. R., Ayupov R. H. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning elektron tijorat samaradorligini oshirishdagi o‘rni va imkoniyatlari: Monografiya. Toshkent: Toshkent Moliya Instituti. “Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot” kafedrasida tayyorlangan, 2023, 662 bet..

X.I. Ibragimov, U.A. Yo‘ldoshev, X.Bobomirzayev; mas’ul muharrir M. Mahmudov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi. —Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2009- 400 b.